

Pedagogning kreativ (ijodkorlik) sifatlari

Jumaniyozova Zlixa Reymonovna p.f.d.(PHD)

Djurakulova Lola Raxmonberdiyevna

Xalqaro Nordik Unuversiteti, Ta`lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi

(maktabgacha ta`lim) MT – 123guruh magistranti

loladjurakulova86@gmail.com

Tel: +99890 186 14 08

Annotasiya: Ushbu maqolada pedagog kadrlarni kreativlik (ijodkorlik) qobiliyatlarini, muammoli vaziyatlarni ijobjiy hal qilishga bulgan tayyorgarligi tavsiflovchi qobiliyatlar, ta`lim va tarbiya jarayonini samaradorligini ta'minlashga xizmat qiluvchi yangi g'oyalarni yaratish, shuningdek, o'qituvvchilarni ijodkorligini shakllantiruvchi pedagogik asoslari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Pedagogik mahurat, kasbiy mahurat, mahsuldar, evristik ijodkorlik, kreativ (ijodiy) faoliyat, kreativ sifatlar.

Аннотация: В данной статье рассматриваются творческие способности педагогов, способности описывающие их готовность к положительному решению проблемных ситуаций, созданию новых идей, служащих обеспечению эффективности образовательно-воспитательного процесса, а также педагогические основы, формирующие творчество учителей.

Ключевые слова: Педагогическое мастерство, профессиональное мастерство, продуктивное, эвристическое творчество, креативная (творческая) деятельность, творческие качества.

Abstract: This article examines the creative abilities of teachers, the abilities that describe their readiness to positively solve problem situations, create new ideas that serve to ensure the effectiveness of the educational process, as well as the pedagogical foundations that shape the creativity of teachers.

Key words: Pedagogical skills, professional skills, productive, heuristic creativity,

creative (creation) activity, creative qualities.

KIRISH.

O'zbekiston Respublikasida o'qituvchi kadrlarning ma'nnaviy qiyofasiga, aqliy salohiyatiga hamda kasbiy mahoratiga nisbatan alohida mas'uliyat yuklangan. Xush zamonaviy pedagog qanday bo'lishi kerak? Ushbu muammo ko'plab olimlaming, ziyoli ahlining, hatto ota-onalarning diqqat-e'tiborida bo'ldi. Hali ham bu muammo bo'yicha izlanishlar, ilmiy-tadqiqotlar hozirgi kunda ham davom etmoqda. Hozirgi kundagi global o'zgarishlar, fan-texnika va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining kun sayin rivojlanib borishi o`qituvchidan pedagogik mahoratni, pedagogik-psixologik bilimlarni, o'z kasbiy bilimlarinin chuqur egallashi, yuksak tafakkurga ega bo'lishi, fikrlash doirasi keng va mulohazali boiishni talab qiladi. O'qituvchi barkamol avlod ta'lim-tarbiyasi uchun javobgar shaxs bo'lib, nafaqat ma'nnaviy-axloqiy madaniyati bilan atrofdagilarga o'rnak bo'lishi, shu bilan birga, pedagogik mahoratini ham namoyon eta olish yetuk o'qituvchi sifatida malakali kadrlarni tayyorlash ishiga o'zini munosib hissasini qo'shishi zarur.

Pedagogik mahoratga ega bo'lish, o'qituvchi uchun ta'lim-tarbiya samaradorligini ta'minlovchi zamin bo'libgina qolmasdan, ayni vaqtida uning jamiyatdagi obro'-e'tiborini ham oshiradi, o'quvchilarga nisbatan hurmat yuzaga keladi.

Kasbiy mahoratni oshirish yo'lida amaliy harakatlarni tashkil etish pedagogik faoliyatda yo'l qo'yilgan yoki qo'yilayotgan xatolardan holis bo'lish, o'quvchilar, talabar, hamkasblar hamda ota-onalar bilan munosabatni muvaffaqiyatlarga erishish imkoniyatini yaratadi. Kasbiy faoiiyatning ta'lim mazmunini belgilovchi sifatlari o'qituvchining ijodkorligida namoyon bo'ladi. Ijodkorlik - bu sifat jihatidan yangi, original va takrorlanmas biror yangilikni paydo qiluvchi faoliyatdir. **"Kreativlik"** va **"pedagogik kreativlik"** tushunchalarining mohiyati. Zamonaviy sharoitda pedagogning kreativlik sifatlariga ega bo'lishi taqozo etadi. **Kreativlik** (lot., ing. "create" – yaratish, "creative" yaratuvchi, ijodkor) –

individning yangi g'oyalarni ishlab chiqarishga tayèrlikni tavsiflovchi hamda mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati.

Shaxsnинг kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, histuyg‘ularida, muayyan faoliyat turlarida namoèn bo‘ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda èki uning muayyan xususiyatlarini tavsiflaydi. Shuningdek, kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida aks etadi. Qolaversa, kreativlik zehni o‘tkirlikni belgilab beradi **Kreativ** - ijodkorlikda o'qituvchi ijtimoiy ahamiyatga ega boigan yangi nazariyalarni yaratadi, o'z fikrlari va takliflari bilan chiqadi, mohir va tajribali, layoqatli o'qituvchilargina bimga erishishi mumkin.

Kreativlik nima? Amerikalik psixolog Avraam Maslouning fikricha, bu har bir kishiga xos bo'lgan, lekin mavjud tarbiya, ta'lim va ijtimoiy amaliyot tizimi ta'sirida ko'pchilik tomonidan yo'qolgan ijodiy yo'nalishdir.

Kreativlik u qanday namoyon bo`ladi?

- 1.Kreativlik – bu insonning butun hayoti davomidagi sifatlar majmuidir.
- 2.Kreativlik – bu insonning o`ziga topshirilgan muayyan topshiriq va vazifalarni bajarish usulidir.
- 3.Kreativlik – bu intellekt (aql) ning maxsulidir.
4. Kreativlik – bu insonga xudo tomonidan berilgan qobiliyat, kashfiyotlardir.
5. Kreativlik – bu ijodiy faoliyatdir.
- 6.Kreativlik – bu ijodkor insonlarning ma`naviy-axloqiy va ijtimoiy adaptatsiyalanishidir.
7. Kreativlik – bu madaniyat bilan uzviy bog`liq bo`lgan kategoriadir.

Har qanday qobiliyat - shaxsga tegishli bo'lgan murakkab tushunchadir, u faoliyatning talablariga mos xususiyatlar tizimini o‘z ichiga qamrab oladi.

Demak, o'qituvchining iqtidori va qobiliyati uning mehnatini har tomonlama mukammal shakllantirib, ilmiy jihatdan ijodkorligini to'g'ri tashkil etishga ta'siri cheksiz ekanligidan dalolat beradi. Iqtidor va qobiliyat o'qituvchining mehnat faoliyatida:

- o'z kasbiga boigan munosabati asosida kasbiy ehtivojini kuchaytiradi;
- kasbiy faoliyatga chinakam qiziqish namunalarini rivojlantiradi;

- pedagogik mahorat asoslarini egallashda bir maqsad sari intiluvchanlikni shakllantiradi;
- o'z ilmiy mehnati uchun ahamiyatga ega boigan ijodkorlik sifatlari majmuasining yuzaga kelishini ta'minlaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI.

L.S.Vigotskiyning fikriga ko'ra, "atrofimizdagi kundalik hayotda ijod mavjudlikning zaruriy shartidir", L.M.Popov esa ijodkorlikning boshlanishini tirik materianing aks ettirish qobiliyatidan ko'radi va A.S. Makarenko ijodiy ish olib boruvchi yaxshi muvofiqlashtirilgan pedagogik jamoaga alohida ahamiyat berib, bunday jamoada hatto tajribasiz o'qituvchi ham ko'p yutuqlarga erishishi mumkinligini ta'kidladi va agar o'qituvchilar yaxlit ijodiy jamoaga birlashtirilmasa, hatto tajribali va ijodkor o'qituvchi ham ishda yuqori natijalarga erisha olmasligi mumkinligini aytib o'tadi. «Kreativlik otas»

nomi bilan mashhur Pol Torrans to'rtta kreativlik konikmasini aniqlagan. Uning olib borgan tadqiqotlari shundan dalolat beradiki, mazkur kreativ ko'nikmalarni shakllantirish va ularni baholash mumkun:

Ravonlik. Ko'plab g'oyalarni o'ylab topish ko'nikmasi ko'p degan so'zga asoslanadi.

Moslashuvchanlik. Turli g'oyalarni o'ylab topish ko'nikmasi o'zgartirish degan so'zga asoslanadi.

O'ziga xoslik. Boshqalarga o'xshamagan, ajralib turuvchi g'oyani o'ylabtopish ko'nikmasi noyob degan so'zga asoslanadi.

Yaratuvchanlik. G'oyalarni kengaytirish ko'nikmasi qo'shish degan so'zga asoslanadi.

Psixologiyada P.Torrens tomonidan shaxs kreativligini aniqlovchi test ishlabchiqilgan. "Pedagogik ijodkorlik" quyidagi ikki holatni kafolatlay olishi zarur:

1) pedagoglar tomonidan o'quv fanlarini past o'zlashtirayotgan va ularini o'rganishni zerikarli deb hisoblayotgan o'quvchilar e'tiborlarini fan asoslarini o'zlashtirishga jalg etish;

2) pedagoglarga o'quvchilarda kreativ fikrlash va ijodiy faoliyat natijalarini rag'batlantirishga xizmat qiladigan strategiya va vositalarni tavsiya etish qilish orqali auditoriyada ulardan samarali foydalanishlari uchun imkoniyat yaratish. Adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, shaxsning ijodiy salohiyati muammoga mustaqil qarash, qarama-qarshiliklar, tanqidiy fikrlash, har qanday muammolarni tahlil qilish qobiliyati, analitik fikrlash, ular uchun yechim topish qobiliyati, bilim olish, malaka va ta'lif berish usullarini yangi holatga o'tkazish imkoniyati, ilgari o'rganilgan usullarni yangilarga birlashtira olish kabi ko'nikmalarda namoyon bo'lishi mumkin.

Kreativ fikrlaydigan o'qituvchiga qo'yiladigan zamonaviy talablar shundan iboratki, u axborotchi emas, balki o'quvchilarning individual imkoniyatlarini hisobga olgan holda muvofiqlashtiruvchi (koordinator), boshqaruvchi (menejer), muloqot tashkilotchisi, maslahatchisi bo'lishi kerak. O'qituvchi bilimlarni o'zlashtirishning eng samarali usullarini izlashni qo'llab-quvvatlaydi va boshqaradi.

Demak, Kreativlik shaxsni rivojlantiruvchi kategoriya sifatida inson tafakkuri, ma'naviyatining ajralmas qismi hisoblanadi, u shaxs ega bo'lgan bilimlarning ko'pqirrali ekanligida emas, balki yangi g'oyalarga intilish, o'rnatilgan stereotiplarni isloh qilish va o'zgartirishda, hayotiy muammolarni yechish jarayonida kutilmagan va noodatiy qarorlar chiqarishda namoyon bo'ladi. Ya'ni, berilgan bilimlarni takrorlash orqali kreativlikka erishib bo'lmaydi, ijodiy fikrlash jarayonida yangi fikr, yangi g'oyaning paydo bo'lishi asosiy shartdir. Shuning uchun kreativ fikrlash jarayonida tasavvur muhim rol o'ynaydi. Pedagog qanchalik kreativ bo'lsa, o'quv auditoriyasi va ma'naviy- ma'rifiytadbirlar tashkil etiladigan imkoniyatlari, kreativlik layoqatlariga tayangan holda jihozlashga muvaffaq bo'ladi. Natijada ham talabalarning kreativ faolligi oshadi, ham mashg'ulot, tadbirning ta'sirchanligi kuchayadi.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. Jumaniyazova, Z. R. (2023). IMPROVING THE SYSTEM OF SPIRITUAL AND MORAL EDUCATION OF PRESCHOOL CHILDREN

THROUGH KARAKALPAK FOLK GAMES. European International Journal of Pedagogics, 3(01), 9-15.

2. Жуманиязова, З. Р. (2021). ҲАРАКАТЛИ ЎЙИНЛАР ВА УЛАРНИНГ ЯРАТИЛИШИ: Жуманиязова Злиха Реймовна Мактабгача таълим ташкилотлари директор ва мутахассисларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш институти мактабгача таълим методикаси кафедраси катта ўқитувчиси. Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал, (6), 119-122.

3. Reimovna, Z. Z. Education of Preschool Children to Be Educated, Educated, Physically Healthy, Strong. JournalNX, 696-699.

4. Жуманиязова, З. Р. (2021). ЎЙИН-ДОИМО ҲАЁТНИ АКС ЭТТИРАДИ. Экономика и социум, (10 (89)), 651-654.

5. Jumaniyazova Zlixa Reymovna. (2023). XALQ O'YINLARI VOSITASIDA MAKTABGACHA KATTA YOSHDAGI BOLALARNI MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYALASH. Лучшие интеллектуальные исследования, 8(4), 76–82. Retrieved from <http://web-journal.ru/index.php/journal/article/view/1181>

6. Sultansaidova, M. (2023). BO'LAJAK TARBIYACHILARNI KASBGA YO'NALTIRIB O'QITISHDA METODIK TAYYORGARLIKNI TAKOMILLASHTIRISH. Академические исследования в современной науке, 2(5), 107-109.

7. Sultansaidova, M. (2023). SOME ASPECTS OF PREPARING CHILDREN FOR SCHOOL. International Journal of Pedagogics, 3(02), 51-55.

8. Xalilova Dilnoza Furqatovna. "Maktabgacha ta'lif tashkiloti bo'lajak tarbiyachilarining ijtimoiy kompetensiyasini shakllantirish ". Ta'lif sifati – Yangi O'zbekiston taraqqiyotini yanada yuksaltirishning muhim omili, Qo'qon 21 iyun 2023 yil. 677-679.

9. Xalilova Dilnoza Furqatovna. "Bo'lajak tarbiyachilarni ijtimoiy kompetentligini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida". Science and innovation, Special Issue 4, 3 march 2023. 57-59

10. Imamova, N. Z. (2022). DEVELOPING THE CREATIVE QUALITIES OF FUTURE TEACHERS. *European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 2(04), 317-321.